



BAG'RIKENG YURTIM



Savolga javob bering

O'zbekiston qaysi davlatlar bilan chegaradosh? Rasmga qarab ayting. Har bir davlatning milliy liboslarini toping.



Videorolikni tomosha qiling.

5





O'qituvchi yordamida o'rganing

O'zbekistonda, asosan, o'zbeklar yashaydi. Shu bilan birga, qoraqalpoq, tojik, rus, qozoq, qirg'iz, turkman va boshqa millat vakillari ahil-inoq istiqomat qiladi.

Mamlakatimiz aholisi turli dinlarga, ya'ni islom, xristianlik, yahudiy va boshqalarga e'tiqod qiladi. Buning uchun to'sqinlik qilinmaydi.

Yurtimiz aholisining katta qismi Islom diniga e'tiqod qiladi.

Makka – musulmonlarning muborak shahri. Payg'ambar Muhammad alayhissalom ham shu shaharda dunyoga kelganlar.





Yozma topshiriq

Sizning atrofingizda qaysi millat vakillari yashaydi?
Belgi qo'ying yoki bo'sh joyga yozing.

O'zbeklar

Tojiklar

Qozoqlar

Qoraqalpoqlar

Ruslar

Qirg'izlar

Turkmanlar


Tatarlar

Koreyslar



Guruhlarda ishlash

O'ylab ko'ring, inson hurmatga sazovor bo'lishi uchun qanday fazilatlarga ega bo'lishi kerak? Bu xislatlarni quyosh nurlari ichiga yozing.





Yozma topshiriq

1. Endi men
..... ni bilib oldim.
2. Endi men
..... qilaman.



Uy vazifasi

Yulduzchalarga do'stlaringizning ismini yozing. Ular haqida qisqacha hikoya tuzing. Boshqalarga qanday munosabatda bo'lishingiz kerakligini o'ylab ko'ring.

